

## 2021- yilning yanvar - iyun oylarida Qashqadaryo viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021– yilning yanvar– iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 11071,4 mlrd. so'mni yoki 2020- yilning mos davriga nisbatan 100,2 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar - 10886,0 mlrd. so'mni (100,2 %), o'rmon xo'jaligi - 168,2 mlrd. so'mni (101,5 %), baliqchilik xo'jaligi - 17,2 mlrd. so'mni (89,3 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida Qashqadaryo viloyatining ulushi 9,5 % ni tashkil etdi.

**11071,4****Qashqadaryo viloyati bo'yicha  
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi  
mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so'm**

01

**10886,0 Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik  
va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar**


02

**168,2 O'rmon xo'jaligi**


03

**17,2 Baliqchilik**

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘shish sur‘ati**




**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining taqsimlanishi (%)**



- O‘rmon xo‘jaligi
- Baliqchilik xo‘jaligi
- Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar
- Dehqonchilik
- Chorvachilik
- Ovchilik va qishloq xo‘jaligi sohasidagi xizmatlar

2021- yilning yanvar - iyun yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 100,2 % i - dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar, 101,5 % i - o'rmon xo'jaligi, 89,3 % i – baliq xo'jaligi hissasiga to'g'ri keladi.


### Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi



2021- yilning yanvar- iyun oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Chiroqchi (1630,4 mlrd. so'm) va Koson (995,3 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Qarshi shahri (94,0 mlrd. so'm), Shahrisabz shahri (101,0 mlrd. so'm) va Dehqonobod tumanini (510,8 mlrd. so'm) keltirib o'tish mumkin.

Viloyat ko'rsatkichidan (100,2 %) yuqori o'sish sur'atlari Nishon (107,2 %), Kitob (107,1 %), Nishon (105,2 %), Dehqonobod (103,0 %), Shahrisabz shahri (102,3 %), Kasbi (102,1 %), Mirishkor (101,8 %), G'uzor (101,4 %), va Shahrisabz (101,3 %), tumanlarida kuzatildi. Qarshi tumani (91,6 %) va Yakkabog' (86,8 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

## Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati




### Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2021- yilning yanvar- iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 10818,6 mlrd. so'mni yoki 2020- yilning mos davriga nisbatan 100,1 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari - 3 367,6 mlrd. so'mni (89,6 %), chorvachilik mahsulotlari - 7451,0 mlrd. so'mni (105,9 %) tashkil qildi.


### Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi

**31,1 %**  
Dehqonchilik  
mahsulotlari




**68,9 %**  
Chorvachilik  
mahsulotlari

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)




## Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 81,6 % i - dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 16,6 % i - fermer xo'jaliklariga, 1,8 % i - qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

### Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)



2021-yilning yanvar– iyun oylari yakuniga ko'ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Nishon tumanida (36,4 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Shahrisabz shahrida (96,8 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Qarshi shahrida (10,7 %) qayd etildi.


Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Shahrisabz shahrida (0,1%), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng kam ulushi Nishon tumanida (61,3%), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Koson tumanida (0,5%) qayd etildi.

## Dehqonchilik


2021- yilning yanvar- iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 3367,6 mlrd. so'mni yoki 2020- yilning mos davriga nisbatan 89,6 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 31,1 % ni tashkil qildi.

### Don jami


**Hajmi, ming t.**



**O'sish sur'ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon(shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**




2021- yilning yanvar- iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 517,0 ming t. don (2020- yilning yanvar- iyuniga nisbatan 16,5 % ga kam) ishlab chiqarildi. Don ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, don ishlab chiqarish umumiy hajmidan 15,2% i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

**Qashqadaryo viloyati bo'yicha  
don yetishtirish  
hajmi, tonna**




## Kartoshka


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021- yilning yanvar- iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 101,7 ming t. kartoshka (2020- yilning yanvar- iyuniga nisbatan 4,6 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Kartoshka ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, kartoshka ishlab chiqarish umumiy hajmidan 92,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Qashqadaryo viloyati bo'yicha  
kartoshka yetishtirish  
hajmi, tonna




## Sabzavotlar


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



### Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021- yilning yanvar- iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 162,2 ming t. sabzavotlar (2020- yilning yanvar- iyuniga nisbatan 6,8 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 87,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Qashqadaryo viloyati bo'yicha  
sabzavotlar  
yetishtirish hajmi, t.




## Poliz


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021- yilning yanvar- iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 33,7 ming t. poliz (2020- yilning yanvar- iyuniga nisbatan 8,3 % ga kam) ishlab chiqarildi. Poliz ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, poliz ishlab chiqarish umumiy hajmidan 70,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




### Qashqadaryo viloyati bo'yicha poliz yetishtirish hajmi, tonna




## Mevalar


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021- yilning yanvar- iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 52,5 ming t. mevalar (2020- yilning yanvar- iyuniga nisbatan 23,6 % ga kam) ishlab chiqarildi. Meva ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, meva ishlab chiqarish umumiy hajmidan 63,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Qashqadaryo viloyati bo'yicha  
mevalar yetishtirish  
hajmi, tonna






## Uzum


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021- yilning yanvar- iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 6,3 ming t. uzum (2020- yilning yanvar- iyuniga nisbatan 16,0 % ga kam) ishlab chiqarildi. Uzum ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, uzum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 45,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



Qashqadaryo viloyati bo'yicha  
uzum yetishtirish  
hajmi, tonna




## Chorvachilik



2021- yilning yanvar- iyun oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 7451,0 mlrd. so'mni yoki 2020- yilning mos davriga nisbatan 105,9 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 68,9 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko'rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko'payishiga, ichki iste'mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to'ldirishga imkon yaratdi.




2021- yilning yanvar- iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 141,4 ming t. go'sht (2020- yilning yanvar- iyuniga nisbatan 6,8 % ga ko'p), 542,0 ming t. sut (3,5 % ga ko'p), 236,7 mln.dona tuxum (3,1 % ga ko'p), 160,3 ming dona qora ko'l teri


(7,3 % ga ko'p ) ishlab chiqarildi va 1044,3 t. baliq (19,3 % ga kam) ovlandi.

**Go'sht (tirik vaznda)**


**Hajmi, ming t.**



**O'sish sur'ati**



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**




2021- yilning yanvar- iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 141,4 ming t. go'sht (2020- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 6,8 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish

ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 97,2% i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




### Qashqadaryo viloyati bo'yicha go'sht (*tirik vaznda*) yetishtirish hajmi, tonna




## Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2021- yilning yanvar- iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 542,0 ming t. sut (2020- yilning yanvar- iyuniga nisbatan 3,5 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy

hajmidan 96,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.


**Qashqadaryo viloyati bo'yicha  
sut yetishtirish  
hajmi, t.**

## Tuxum


Hajmi, mln.dona



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan  
mahsulotning xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2021- yilning yanvar- iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 236,7 mln. dona tuxum (2020- yilning yanvar- iyuniga nisbatan 3,1 % ga ko'p ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish



ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 65,4% i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




## Qashqadaryo viloyati bo'yicha olingan tuxum hajmi, ming dona




## Baliq


Hajmi, t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan  
mahsulotning xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2021-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1044,3 tonna (2020-yilning yanvar-iyuniga nisbatan 19,3 % ga kam) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 53,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



Qashqadaryo viloyati bo'yicha  
ovlangan baliq  
hajmi, tonna



### Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 4,3 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 94,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 6,2 % i fermer xo'jaliklariga, 87,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 6,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, otlar umumiy sonidan 10,6 % i fermer xo'jaliklariga, 85,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 4,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi. Shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 3,3 % i fermer xo'jaliklariga, 72,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 24,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 604,7 mingtaga yetdi.


2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni - 41,9 ming boshga (2,7 %) ko'paydi.

## Yirik shoxli qoramollar


**Soni, ming bosh**



**O'sish sur'ati**



**Bosh soning  
xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami yirik

shoxli qoramollarning 94,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.


**Qashqadaryo viloyati  
bo'yicha yirik shoxli  
qoramollarning umumiy  
bosh soni, ming bosh**

2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, sigirlarning umumiy bosh soni 518,2 mingtaga yetdi.


2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni - 11,1 ming boshga (2,2 %) ko'paydi.

## Sigirlar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining  
xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, jami sigirlarning 94,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelmoqda.



**Qashqadaryo viloyati  
bo'yicha sigirlarning  
umumiy bosh soni,  
ming bosh**




2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 4 629,3 mingtaga yetdi.

2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'y va echkilar bosh soni - 40,3 mingtaga (0,9 %) ko'paydi.




## Qo'y va echkilar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh soning  
xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, qo'y va echkilar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami qo'y va echkilarning 87,7 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



**Qashqadaryoviloyatibo'yicha  
qo'y va echkilarning  
umumiy bosh soni,  
ming bosh**




2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, otlarning umumiy bosh soni 32,6 mingtaga yetdi.


2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni - 672 boshga (2,1 %) ko'paydi.

## Otlar

Soni, bosh



O'sish sur'ati



Bosh soning  
xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, otlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar, xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, jami otlarning 85,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ta'kidlash lozim.



**Qashqadaryo viloyati  
bo'yicha otlarning  
umumiy bosh soni, bosh**




2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, parrandalarning umumiy bosh soni 5767,4 mingtaga yetdi.

2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi


xo'jaliklarda parrandalar bosh soni - 55,4 ming boshga (1,0 %) ko'paydi.

## Parrandalar


**Soni, ming bosh**



**O'sish sur'ati**



**Bosh soning  
xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, parrandalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 72,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.



Qashqadaryo viloyati bo'yicha  
parrandalarning  
umumiy bosh soni,  
ming bosh



Qishloq xo'jaligi va ekologiya  
statistikasi bo'limi

• 75-221-34-46  
• 75-220-04-15